

4.2-mavzu. Ekologik ta’limning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari

Maqsad: Ekologik ta’limning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillarini anglash, o‘quv dasturlarini ekologik mazmunda boyitish zaruratini tushuntirish hamda global va mahalliy ekologik muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, barqaror rivojlanish tamoyillariga mos qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlanтирish.

Reja:

1. Ekologik ta’limning asosiy yo‘nalishlari
2. O‘quv dasturlarining ekologik mazmunda boyitilishi
3. Xulosa

Hozirgi zamon ijtimoiy-ekologik tadqiqotlar inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni keng doirada o‘z ichiga oladi. Shulardan ayrim yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz. Tabiatshnoslik yo‘nalishi insonning biosferaga antropogen va texnogen harakterdagi salbiy ta’sirlari oqibatlarini bartaraf qilish va oldini olishga qaratilgandir. Aniq ekotizimlarni va umuman olganda global ekotizimni degradatsion o‘zgarishlari, iqlim evolyusiyasi, biosfera 40 haroratining tebranishi, ifloslanishning o‘simlik va hayvonot dunyosiga, shuningdek inson organizmiga ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan amaldagi materiallar tahlil qilinadi. Global yo‘nalish ekologik masalalar statusini xozirgi zamon ekologik muammolar tizimi doirasida aniqlashtiradi.

Ekologik ta’lim zamonaviy ijtimoiy-ekologik muammolarni keng qamrab oluvchi yo‘nalishlarda olib boriladi. Jumladan,

Tabiatshunoslik yo‘nalishi ekologik ta’limning ilmiy-tabiyy asosga ega bo‘lgan eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish orqali o‘quvchilar va talabalar inson faoliyatining tabiiy muhitga, ayniqsa biosferaga ko‘rsatadigan antropogen (inson faoliyati natijasidagi) va texnogen (texnika, sanoat, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq) salbiy ta’sirlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishni o‘rganadi.

IPCC (2023) hisoboti iqlim o‘zgarishining global salohiyatli xavflarini tasdiqlaydi. UNESCO esa ekologik barqarorlikni ta’limning ajralmas komponenti sifatida belgilaydi.

Ushbu yo‘nalish mazmuni quydagilarni qamrab oladi.

Ekotizimlar tuzilishi va funksiyasi – o‘quvchilar tabiatning murakkab tizim sifatida qanday ishlashini, undagi abiotik (suv, havo, tuproq, iqlim) va biotik (o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar) omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadi.

Insonning biosferaga ta’siri – sanoat rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi, urbanizatsiya, transport va boshqa faoliyat turlarining tuproq, suv, havo va biologik xilma-xillikka ko‘rsatadigan salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi.

Ekologik muvozanatni buzilishi – iqlim o‘zgarishi, o‘rmonlarning kesilishi, cho‘llanish, ifloslanish, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi global muammolar sabablari va oqibatlari chuqur o‘rganiladi.

Barqaror rivojlanish g‘oyasi – bu yo‘nalishda ta’lim oluvchilar ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini tushunib, ularga amal qilish yo‘llarini o‘zlashtiradilar.

Tabiatshunoslik yo‘nalishi orqali ekologik tafakkur shakllantiriladi, ya’ni inson o‘zining tabiiy muhitdagi o‘rnini tushunadi, atrof-muhitni muhofaza qilish zarurligini anglaydi va ekologik mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘ladi.

Global ekologik yo‘nalish – bu insoniyat oldida turgan eng yirik ekologik xavf-xatarlarni global darajada tushunish, tahlil qilish va ularni hal etish yo‘llarini izlashga qaratilgan yo‘nalishdir. Ushbu yo‘nalish barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ko‘p hollarda BMT tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo‘lgan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) doirasida olib boriladi.

Global ekologik muammolarni butun insoniyatning umumiy xavfi sifatida o‘rganadi. Bunda masalalar tizimli yondashuv asosida klassifikatsiya qilinadi:

Ijtimoiy-ekologik muammolar

Tinchlik va urush xavfi: Zamonaviy urushlar ekologik infratuzilmani buzadi, suv, havo, tuproq zaharlanishiga olib keladi. Tinchlikni saqlash ekologik barqarorlik uchun zaruriy shartdir.

Iqtisodiy tengsizlik: Kam rivojlangan davlatlar resurslarni haddan ortiq ekspluatatsiya qilishga majbur bo‘lmoqda, bu esa global ekologik nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Urbanizatsiya: Shaharlashuvning jadallashuvi yashil hududlar qisqarishiga, chiqindilar ko‘payishiga va atmosfera ifloslanishiga olib kelmoqda.

Ilmiy-texnik muammolar

Zamonaviy sanoat rivojlanish jarayoni insoniyat taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratgani bilan birga, atrof-muhitga jiddiy tahdidlarni ham keltirib chiqardi. Ilmiy-texnik yutuqlar texnologik taraqqiyot, yirik sanoatlashuv, kimyo va energetika sanoatining kengayishi o‘zining ekologik salbiy oqibatlarini namoyon qilmoqda. Ta’lim tizimi bu muammolarni faqat ilmiy asosda emas, balki ijtimoiy mas’uliyat nuqtai nazaridan ham o‘rganishi, yosh avlodga ekologik ong va ehtiyyotkorlik madaniyatini singdirishi zarur. O‘quvchilarga sanoatlashtirishning oqibatlari real misollar orqali tushuntiriladi, masalan: Arktika muzliklarining erishi, Orol dengizining qurishi va boshqalar.

Sanoatlashtirishning ekologik oqibatlari

Atmosfera ifloslanishi – zavod-fabrikalar chiqarayotgan SO₂, NO_x, CO₂ gazlari havo sifatiga putur yetkazadi;

Suv va tuproqning kimyoviy ifloslanishi – neft, og‘ir metall va pestitsidlar ishlab chiqarish chiqindilari suv havzalarini zaharlaydi;

Biologik xilma-xillikning kamayishi – texnogen hududlarda tabiiy yashash muhitlari yo‘q qilinadi;

Global iqlim o‘zgarishlari – CO₂ emissiyasining ortishi issiqxona effektini kuchaytiradi.

Texnogen avariylar sabablari va oqibatlari. Texnologik tizimlarning murakkablashuvi favqulodda holatlarning global ekotizimga ta'sirini kuchaytiradi. Quyidagi holatlar tarixiy saboq sifatida ta'limda o'rganilishi taklif etiladi.

Chernobil AES halokati (1986) – radioaktiv nurlanish oqibatida 200 ming km²dan ortiq maydon zararlangan, ko'plab insonlar umriga zomin bo'lgan;

Fukushima-1 (Yaponiya, 2011) – zilzila va sunami tufayli AESda portlash sodir bo'lib, yapon sohillari ekologik falokat zonasidagi bo'shliqlar va ekologik oqibatlar tahlili orqali baholaydi.

O'quvchilar ushbu texnogen avariyalarni nafaqat tarixiy fakt sifatida, balki muhandislik xatolari, xavfsizlik siyosatidagi bo'shliqlar va ekologik oqibatlar tahlili orqali baholaydi.

Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan birga quyidagilarni o'rganish zarur:

Yashil texnologiyalar
– kam chiqindi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish;

Ekologik monitoring tizimlari – sun'iy yo'ldoshlar va IT orqali ifloslanishni real vaqt rejimida kuzatish;

Atrof-muhit xavfsizligi muhandisligi – loyihalash bosqichidayoq xavf tahlili va avariya xavfini kamaytirish mexanizmlari.

Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, chiqindilar miqdorini kamaytiruvchi, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, ekologik toza va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (masalan, quyosh, shamol, bioyoqilg'i) foydalangan holda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu iqtisodiy model barqaror rivojlanishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolishni ko'zlaydi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga oid bilim va ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim fanlari dasturlariga ushbu yo'nalishga oid mavzularini "Ekologik xavfsizlik asoslari", "Barqaror texnologiyalar", "Yashil iqtisodiyot asoslari" kabi mustaqil mavzular yoki integratsiyalashgan bo'limlar shaklida kiritish zarurati mavjud. Bu orqali o'quvchilar energiya tejovchi texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari, ekologik toza suv va havo tozalash uskunalari, qayta ishlanadigan va biologik parchalanadigan qadoqlash materiallari (eko-qadoqlash) bilan tanishtiriladi. Shuningdek, ular yashil innovatsiyalar, ekologik infratuzilma va ijtimoiy mas'uliyatli iqtisodiy yondashuvlar haqida amaliy bilimlarga ega bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirib, ularni mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ta'lim orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratiladi. Ilmiy-texnik muammolarni chuqur anglash va ularning ekologik oqibatlarini baholash ekologik savodxonlikning ajralmas qismidir. Bugungi ta'lim bu muammolarni faqat nazariy emas, balki interaktiv usullar, loyihalar, ekologik tadqiqotlar orqali o'rgatishi zarur.

Inson – tabiat muammolari

Resurslar tanqisligi:
Neft, gaz, toza suv kabi tabiiy resurslarning cheklanganligi global raqobat va ekologik ekspluatatsiyani kuchaytirmoqda.

Energetika muammolari: Qayta tiklanmaydigan manbalar o‘rniga quyosh, shamol, biogaz kabi alternativ manbalarga o‘tish zarurati tug‘ilmoqda.

Chiqindilar: Global miqyosda chiqindilar hajmi (ayniqsa plastmassa) keskin oshgan. Qayta ishlash, chiqindisiz texnologiyalar (Zero Waste) dolzarb yo‘nalishga aylangan.

Prognostik ekologik ta’lim yo‘nalishi global ekologik jarayonlarning istiqboldagi oqibatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va bashorat qilish orqali barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalish zamonaviy fan yutuqlari, statistik modellar, sun’iy intellekt va raqamli tahlil metodikalariga asoslangan holda olib boriladi.

1. Iqlim o‘zgarishining 2050 va 2100 yillardagi bashorati

Iqlim o‘zgarishi insoniyat uchun eng dolzarb global tahididlardan biri bo‘lib, uning uzoq muddatli oqibatlari sayyoramizdagi barcha hayot shakllariga ta’sir ko‘rsatadi.

IPCC (2023) hisobotiga ko‘ra, agar issiqxona gazlari emissiyasi hozirgi sur’atda davom etsa, 2100 yilga kelib global harorat sanoatgacha davrga nisbatan 4,4°C ga ortishi mumkin. Bu esa qurg‘oqchiliklar, ekstremal haroratlar, muzliklarning erishi va dengiz sathining keskin ko‘tarilishiga olib keladi.

Bu mavzu fizika (issiqlik balansi), geografiya (iqlim zonalari), biologiya (adaptatsiya va yashash sharoitlari), kimyo (Atmosfera va gidrosferani ifloslanishi) fanlari doirasida interaktiv loyihalar orqali o‘quvchilarga o‘rgatilishi mumkin. Maktab o‘quvchilari turli iqlim stsenariyalarini modellashtirib, o‘z hududlarida mumkin bo‘lgan ekologik oqibatlarni prognozlash ko‘nikmasini hosil qiladilar.

2. Suv resurslarining kamayishi va migratsiya oqibatlari

Suv tanqisligi XXI asrda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarayotgan omillardan biridir. Aholi sonining ortishi, qishloq xo‘jaligidagi intensiv sug‘orish, sanoatning o‘sishi tabiiy suv havzalariga bosimni kuchaytirmoqda.

UN Water (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, 2050 yilga borib 4,8–5,7 milliard odam suv tanqisligi bilan to‘qnash kelishi mumkin.

UNEP 2022 hisobotida aytilishicha, 2030 yilga kelib har yili 250 millionga yaqin odam iqlimga bog‘liq sabablarga ko‘ra yashash joyini tark etadi. Bunga suv tanqisligi, ekotizimlar yemirilishi va hosildorlikning pasayishi sabab bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilari global suv zaxiralari, suvdan oqilona foydalanish, toza ichimlik suvi manbalarini muhofaza qilish mavzularida loyiha ishlari, ekskursiyalar, eksperimentlar orqali amaliy bilimga ega bo‘lishadi. Bu esa ekologik mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

3. Bioxilma-xillik yo‘qolishi natijasida ekotizimlar yemirilishi

Bioxilma-xillik — tabiatning barqarorligini ta’minlovchi asosiy mezonlardan biridir. O‘simplik va hayvon turlarining yo‘qolishi oziq-ovqat zanjirining buzilishi, changlatish tizimining ishdan chiqishi, tuproq eroziyasi va havo sifati pasayishiga olib keladi.

WWF Living Planet Report (2022) ga ko‘ra, 1970 yildan beri yovvoyi hayvonlar populyatsiyasi 69% ga qisqargan. Har 10 yilda 1 millionga yaqin tur yo‘qolish xavfi ostida turibdi.

CBD (Biologik xilma-xillik bo‘yicha konvensiya) ma’lumotlariga ko‘ra, agar hozirgi yo‘nalishda davom etilsa, 2100 yilga borib Yer yuzidagi barcha tirik organizmlarning 50% ga yaqini yo‘qolishi mumkin.

Tabiiy fanlar doirasida “O‘z hududingdagi noyob turlarni aniqlash”, “Mahalliy ekotizimlarni kuzatish” kabi mavzular joriy etilishi o‘quvchilarni tabiatni sevishga, asrashga undaydi. Mahalliy bog‘lar, biosfer rezervatlari, tabiat qo‘riqxonalariga tashriflar orqali ekologik anglashuv kuchayadi.

O‘quvchilarni global ekologik muammolarni oldindan ko‘ra olish, ularni ilmiy asosda tahlil qilish, barqaror yechimlar taklif eta olish qobiliyatiga ega shaxslar sifatida tarbiyalash – zamонавиј та’limning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu yo‘nalish ekologik tahdidlarning kelajakdagi oqibatlarini ilmiy asosda prognozlash, ya’ni bashorat qilishga qaratilgan. Unda quyidagilar tahlil qilinadi:

- Iqlim o‘zgarishining 2050 va 2100 yillardagi bashorati
- Suv resurslarining kamayishi va migratsiya oqibatlari
- Bioxilma-xillik yo‘qolishi natijasida ekotizimlar yemirilishi

UNEP 2022 yilgi hisobotida aytishicha, 2030 yilga borib har yili 250 millionga yaqin odam iqlim bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra yashash joyini tark etishga majbur bo‘ladi.

4. Ta’lim va tarbiya yo‘nalishi

Ta’lim va tarbiya yo‘nalishi ekologik xavfsizlikni ta’minalash, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, insonning atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu yo‘nalish ekologik ta’lim va tarbiyani bolalikdan boshlab uzlusiz ta’minalashni, pedagogik metodlar va ta’lim dasturlarini ekologik mazmunda boyitishni nazarda tutadi.

Ekologik tarbiya mazmuni bolaning yosh xususiyatlari, psixologik va ijtimoiy rivojlanish darajalariga qarab bosqichma-bosqich shakllantiriladi:

- Maktabgacha ta’limda – tabiatni asrash, gul va daraxtlarni parvarish qilish, suvni tejash, chiqindilarni ajratish kabi oddiy, lekin amaliy odatlar singdiriladi. O‘yinlar, ertaklar, rasm chizish, tabiatda kuzatuv orqali ekologik sezgirlik shakllantiriladi.
- Boshlang‘ich ta’limda – tabiat qonuniyatları, ekologik muvozanat, hayvon va o‘simpliklar dunyosi, suv va havo muhofazasi kabi mavzular sodda tilda o‘rgatiladi.
- O‘rta va yuqori sinflarda – ekologik muammolar, global iqlim o‘zgarishi, yashil iqtisodiyot, texnologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish maqsadlari chuqurroq tahlil qilinadi.

- Oliy ta’limda – ekologik huquq, ekologik menejment, ekologik xavf tahlili, ekologik audit kabi kasbiy va ilmiy asosda yo‘naltirilgan ta’lim beriladi.

Zamonaviy ekologik ta’lim samaradorligi asosan qo‘llanilayotgan metodik yondashuvlarga bog‘liq. UNESCO tavsiyasiga ko‘ra, faol ishtirok va real muammolar ustida ishlash o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda eng samarali usuldir. An’anaviy ma’ruza usullaridan tashqari, quyidagi metodlar yuqori samaradorlik beradi:

- O‘yinli metodlar – ekologik rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar (masalan, “Eko-shahar quramiz” o‘yini) orqali o‘quvchilar ijtimoiy-ekologik vazifalarni o‘zlari hal qilishga harakat qiladi.
- Loyiha faoliyati – mahalliy muhitni o‘rganish, chiqindilarni kamaytirish loyihasi, suv tejash kampaniyalari, ekologik tadbirlar tashkil qilish orqali o‘quvchilar amaliy bilimlar oladi.
- Mahalliy ekologik kuzatuvlar – suv sifatini o‘lchash, qushlar va o‘simgiliklarni kuzatish, atmosfera ifloslanishini tahlil qilish kabi tadqiqotlar orqali ilmiy fikrlash va kuzatuvchanlik rivojlanadi.

O‘quv dasturlarining ekologik mazmunda boyitilishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-iyundagi PQ-226-sodan qaroriga binoan, ekologik ta’lim va tarbiya mazmunini umumta’lim fanlari dasturlariga joriy qilish bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqilgan. Ekologik ta’lim samarador bo‘lishi uchun u yagona fan doirasida emas, balki barcha fanlar kesimida integratsiyalashgan tarzda berilishi lozim:

- Biologiya – hayotning xilma-xilligi, ekotizimlar va ekologik muvozanat haqida.
- Kimyo – havoni, suvni va tuproqni ifloslantiruvchi moddalar, ularning ta’siri va tozalash usullari haqida.
- Geografiya – iqlim zonalari, tabiiy resurslar, antropogen ta’sirlar va ularning oqibatlari haqida.
- Fizika va texnologiya – energiya tejaydigan texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari haqida.
- Tarix va huquq – insoniyat va tabiat o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar, ekologik huquqlar va mas’uliyat haqida.

Ekologik ta’lim tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan global ekologik muammolar ekologik tafakkur, ong va madaniyatga ega shaxsni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ekologik ta’limning samarali tamoyillarini ishlab chiqish va uni ta’lim-tarbiyaning barcha bosqichlariga chuqur integratsiyalashni talab etadi. Tamoyil – bu ta’limda maqsad, mazmun, shakl va metodlarni belgilovchi ustuvor yo‘nalish, ustun qoidalar majmuidir. Ekologik ta’lim tamoyillari, avvalo, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat, mas’uliyat, barqarorlik va uzlusizlikka tayanadi.

1. Ekologizatsiyalanish tamoyili

Ekologik ta’limni shakllantirishda yetakchi tamoyillardan biri bu – ekologizatsiyalash, ya’ni barcha fan, faoliyat va qarorlar ekologik mezonlar asosida baholanishi zarur degan g‘oyadir. Har qanday ta’limiy yo‘nalishda ekologik jihatlar nazarda tutilishi, ekologik xavfsizlik va barqarorlik ustuvor masala sifatida ilgari

surilishi kerak. Bu tamoyilga ko‘ra, har bir o‘quv predmeti (biologiya, fizika, texnologiya, iqtisod, huquq va boshqalar) atrof-muhit bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi.

2. Uzluksizlik va bosqichlilik tamoyili

Ekologik tarbiya bolalikdan boshlab, butun hayot davomida davom etishi kerak. Bu uzluksizlik va bosqichma-bosqichlik tamoyili orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagি bolalarga tabiatni asrashga doir amaliy ko‘nikmalar singdiriladi, maktabda esa ekologik bilimlar ilmiy asosda beriladi, oliy ta’limda esa kasbiy ekomadaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillari o‘zlashtiriladi. Har bir bosqichda yoshga, psixologik rivojlanish darajasiga va ijtimoiy ehtiyojlarga mos yondashuvlar qo‘llaniladi.

3. Integrativlik tamoyili

Ekologik masalalar murakkab, ko‘p yoqlama va fanlararo xususiyatga ega. Shuning uchun ekologik ta’limda integratsiya tamoyili muhim o‘rin tutadi. Bu tamoyilga ko‘ra, ekologik bilimlar yagona fanga bog‘lanib qolmaydi, balki boshqa fanlar bilan (iqtisodiyot, huquq, madaniyat, sog‘liqni saqlash, axloqshunoslik va boshqalar) uzviy integratsiyalashadi. Masalan, “energiya” mavzusi fizika, geografiya, texnologiya, ekologiya va iqtisod fanlari orqali birgalikda yoritilishi mumkin.

4. Madaniy uyg‘unlik (kulturologik) tamoyili

Ekologik ta’lim nafaqat ilmiy bilimlar majmui, balki insonning umumiy madaniy ongingin bir qismidir. Shuning uchun ekologik tarbiya milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, madaniy meros bilan uyg‘un holda berilishi zarur. Bu tamoyil o‘quvchilarda tabiatga mehr, qadrash, asrash va u bilan uyg‘un yashash madaniyatini shakllantiradi. Ekologik savodxonlik milliy o‘zlikni anglash va dunyoqarashni boyitadi.

5. Amaliyatga yo‘naltirilganlik tamoyili

Nazariy bilimlar real hayotda amaliy ko‘nikmaga aylanishi kerak. Shuning uchun ekologik ta’lim doimiy amaliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu tamoyilga ko‘ra, o‘quvchilar ekologik kuzatuvlar, ekskursiyalar, ekologik tadbirlar, chiqindilarni saralash, energiyani tejash bo‘yicha loyihalarda ishtirok etishlari kerak. Shuningdek, maktablarda “yashil mifik”, “eko-tadqiqotchi”, “yashil hudud” kabi loyihalar orqali ekologik faoliyatlar rag‘batlantiriladi.

6. Komplekslik tamoyili

Atrof-muhit muammolari bir necha sabablar, omillar va oqibatlar bilan bog‘liq. Shu sababli, ekologik ta’limda kompleks yondashuv muhim. Masalan, suv tanqisligi faqatgina tabiiy resurslar masalasi emas, balki iqtisodiy, texnologik va siyosiy muammolarni ham qamrab oladi. Komplekslik tamoyili muammolarni tarmoqaro, ijtimoiy va ekologik jihatdan tahlil qilishga undaydi.

7. Prognozli (bashoratli) yondashuv tamoyili

Ekologik ta’lim o‘quvchilarda kelajakni oldindan ko‘ra bilish, bashorat qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, energetika tanqisligi kabi muammolarni tahlil qilish va ularning istiqboldagi oqibatlarini prognozlash bugungi ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

8. Insonparvarlik va ekologik mas’uliyat tamoyili

Ekologik tarbiya orqali inson faqat bilim emas, balki axloqiy qadriyatlarni ham o‘zlashtiradi. Tabiatga zarar yetkazmaslik, uni sevish, muhofaza qilishga mas’uliyat bilan yondashish – bu zamonaviy ekologik ta’limning etik asosidir. Insonparvarlik tamoyili o‘quvchiga: “Tabiat bu resurs emas, balki hayot manbai” degan tushunchani singdiradi.

9. Mahalliylik va globallik uyg‘unligi tamoyili

Ekologik ta’limda “o‘ylash global – harakat qilish lokal” yondashuvi tamoyil sifatida qaraladi. Har bir o‘quvchi o‘z yashash joyidagi ekologik muammolarni anglab, ularni hal etishga harakat qilishi kerak. Shu bilan birga, bu muammolar global ekologik jarayonlar bilan bog‘liqligini tushunadi. Masalan, chiqindilarni ajratish orqali u global iqlim o‘zgarishiga hissa qo‘shayotganini anglaydi.

Ekologik ta’lim tamoyillari – bu o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi, ekologik tafakkur, ong, madaniyat va amaliyotga yo‘naltirilgan ustuvor yondashuvlardir. Ular zamonaviy ekologik muammolar yechimiga mas’uliyatli, ongli va faol yondashuvchi avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Har bir tamoyil ekologik savodxonlikni rivojlantirish, barqaror rivojlanish g‘oyasini hayotga tadbiq etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.